



Eko-maktablar dasturi

Barqarorlikka yo'naltirilgan qadam-baqadam yashil qo'llanma

7 qadam



Mundarija

Kirish: Eko-maktablar dasturi o'zi nima?	2
1-qadam: Ekologik qo'mitani tuzish	8
2-qadam: Barqarorlikning ekologik auditi	12
3-qadam: Harakatlar rejasini ishlab chiqish	17
4-qadam: Monitoring va baholash	21
5-qadam: O'quv rejasiga bog'lash	25
6-qadam: Xabardor qilish va jalb etish	30
7-qadam: Ekologik kodeksni shakllantirish	35



Kirish:

Eko-maktablar dasturi o'zi nima?

Eko-maktablar dasturi o'quvchilarni o'z maktablarida va o'z jamoatchiligida atrof-muhitga oid qarorlarni qabul qilishda va harakatlarni amalga oshirishda faol rol o'ynash imkoniyatini yaratish uchun butun maktabni ushbu maqsad sari safarbar etishga qaratilgan. Ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishgan maktablarga "Yashil bayroq" maxsus mukofoti beriladi!



Yashil bayroq o'zi nima?

"Yashil bayroq" mukofoti — bu maktablarining barqaror turmush tarzini rivojlantirishga sodiqligini tasdiqlovchi nufuzli ekologik belgi.



Ekologik Ta'lim Fondi (ETF)

ETF — barqaror rivojlanishga ko'maklashuvchi nodavlat notijorat tashkiloti. Eko-maktablar dasturidan tashqari, ETF odamlarni dunyoning barqaror fuqarolari bo'lishiga imkon berish uchun yana 4 ta dasturni amalga oshiradi.

MASLAHAT: 7 ta qadam haqida to'la-qonli tasavvurga ega bo'lish uchun hujjatni kamida bir marta o'qib chiqing va ushbu qadamlarni o'zingiz qanday tashkil qilishingiz mumkinligi haqida yaxshiroq o'ylab ko'ring, chunki bu amallarni ketma-ket bajarish shart emas.

Shuningdek, siz o'zingizning faoliyatigizni istalgan vaqtda, yil davomida to'ldirishingiz mumkin! Hujjatlarni, rasmlarni yuklang va vaqti-vaqti bilan (har oyda / har uch oyda) o'z yutuqlaringizni saqlab turing, shunda siz mukofot olishga ariza berish kerak bo'lgan vaqtda shoshilib qolmaysiz. Ariza berish imkoniyati yiliga ikki marta beriladi.

Nega aynan Eko-maktablar dasturi?

Eko-maktablar dasturi sizning maktabingiz jamoatchiligi-ning hayot sifatini quyidagi yo'llar bilan takomillashtirish imkoniyatidir:



O'quvchilarga o'z fikrini bildirishga imkoniyat berish



Maktablardagi ichki muhitni yaxshilash bo'yicha tegishli maqsadlarni belgilash



Ushbu maqsadlarga erishish uchun maktab resurslariga muvofiq rejani ishlab chiqish va amalga oshirish



Maktab jamoatchiligining kundalik faoliyatiga o'quv dasturlarini bog'lash



Maktabingizda va uning atrofidagi jamoatchilikda jamoaviy ishlarni rivojlantirish



Tajriba va malaka almashish orqali xalqaro va mahalliy maktablar bilan hamkorlik qilish

Eko-maktablar dasturi qanday ishlaydi?

Eko-maktablar dasturi o'quvchilarda atrof-muhitga mas'uliyat hissini butun maktab yondashuvini qo'llash yo'li bilan rivojlantirishga quyidagi harakatlar orqali intiladi:



Asosan, maktabni rivojlantirish rejasiga chambarchas bog'langan maktab atrof-muhit siyosati orqali.

Asosiy maqsad — maktabning kundalik funksiyalariga barqaror odatlarni, o'quvchilarga ekologik asoslangan qaror qabul qilishni o'rgatish orqali maktabga ekologik etikani singdirishdir. Maktab ushbu maqsadga erishganligi isbotlanganda, u eko-maktablarning oliy mukofotiga sazovor bo'ladi.

Maktabning atrof-muhit siyosati nima?

Maktab atrof-muhit siyosati deganda maktabning atrof-muhitga oid qonunlar, qoidalar va boshqa siyosiy mexanizmlariga bo'lgan mas'uliyati tushuniladi.



Eko-maktablar Sizga qanday foyda keltiradi?

Eko-maktablar — kompleks dastur. U o'quvchilar, o'qituvchilar, ma'muriy xodimlar, o'qituvchi bo'lmagan xodimlar, ota-onalar va mahalliy jamoatchilikni o'z ichiga olgan ekologik ongini va harakatlarni maktab hayoti va madaniyatining ajralmas qismiga aylantirishga intiladi. Eko-maktablar sinfdan tashqari ta'limni kengaytirish va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabat bildirish va majburiyatlarni ado etishni rivojlantirish maqsadida ham sinf ichida, ham sinf tashqarisida, keng jamoatchilikda ham ish olib borishadi.

U xoh davlat, xususiy, nizom asosida qurilgan, magnit maktabi yoki uy maktabi bo'lishidan qat'i nazar, eko-maktablar dasturi ijobiy natijalar beradi. Maktablarimiz faol va g'ayratli, o'quvchilari-miz esa ekologik ongini rivojlantirib, amaliy, tajribaviy va loyihaviy ta'lim orqali maktab binolari va maydonlarini haqiqiy o'quv laboratoriyalariga aylantirishadi.

Maktab va maktabga tutash hududga sarflanadigan xarajatlarni tejashdan tashqari, eko-maktablar o'quvchilarning bilimlari va sog'lig'iga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, turli davlatlarda dastur natijasida quyidagi ijobiy holatlar qayd etilgan:



- **O'quvchilar faolligining o'sishi**
- **O'qish qobiliyatining yaxshilanishi**
- **Matematikadan bilimlar yaxshilanishi**
- **Ilmiy tushunchalarni yaxshiroq anglashi**
- **Texnologiya va muhandislik bilimlarining ortishi**
- **Ilmiy va tabiat tadbirlarida ishtirok etishning o'sishi**
- **Maktab davomati yaxshilanishi**
- **O'quvchilar / xodimlarning jismoniy faolligi o'sishi**

Shunday qilib, sizning maktabingiz eko-maktabga aylanishini xohlaysizmi?

Quyida birinchi bosqichga o'tishdan oldin bajarishingiz kerak bo'lgan MUHIM mezonlardan ba'zilar keltirilgan!


Iltimos, tayyor ekanligingizni ko'rsatish uchun quyidagi ro'yxatni to'ldiring! Yonidagi aylanachalarni belgilang.



- Maktab**
- Sizning maktab direktoringiz dasturni amalga oshirishga ROZI BO'LISHI kerak. Bu degani, u ro'yxatdan o'tish varag'iga imzo qo'yishi va muhr bosishi talab qilinadi!**
- O'quvchilarni dastur yuzasidan qaror qabul qilish, uni amalga oshirish va nazorat qilish bosqichlariga faol jalb qilishga ijobiy munosabat bildirish.**
- Dasturda butun maktab jamoatchiligi, shu jumladan ma'muriyat xodimlari ham faol ishtirok etishi kerak.**
- Maktabingiz jamoatchiligi maktabni yaxshilash uchun uzoq muddatli rejalar bilan shug'ullanishga qat'iy intilishi va tayyor bo'lishi kerak.**

Ajoyib, ro'yxat to'ldirildi! Eko-maktab sifatida ro'yxatdan o'tganingizdan so'ng, keyingi harakatingiz ushbu 7 ta oddiy bosqichni bajarishdir!

EKO-MAKTAB SARI YETTI QADAM JARAYONINING METODOLOGIYASI



I-qadam: Ekologik qo'mitani tuzish

Qo'mitaning vazifalari



Maktab jamoatchiligining ekologik muammolarini hal qiladigan maktab ekologik siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilish



Qarorlar qabul qilish jarayonida maktab jamoatchiligining barcha vakillari manfaatlarini ifodalashini ta'minlash



Butun maktab jamoatchiligi bilan yetarli darajada aloqalarni o'rnatish, dastur butun maktab miqyosida amalga oshirilayotganligiga amin bo'lish



Dasturni maktabni rivojlantirish rejasi va mahalliy jamoatchilikning 21 ta tashabbusi bilan birlashtirish

Qo'mita tarkibini belgilash har bir maktabning o'ziga bog'liq. Odatda qo'mita quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak (tavsiya qilinadi):

Maktab direktori

Ota-onalar

O'quvchilar

Maktab direktori

O'qituvchilar

Maktab ma'muriyati a'zosi

Mahalla yig'ini vakili

Maktab

O'qituvchi bo'lmagan xodimlar

Sizning qo'mitangiz yuqoridagidan biroz boshqacha ko'rinishda bo'lishi ham mumkin!

MASLAHAT: Yashil klub, tabiat havaskorlari, ilmiy klub yoki hattoki skautlar jamoasi Eko-qo'mitani tashkil qilish uchun ajoyib boshlang'ich nuqtalardir.

Eslatma:

1. Maktab eko-qo'mitasida yetarli miqdordagi shaxslar bo'lishi kerak, ammo juda ko'p bo'lmasligi shart! Esingizda bo'lsin, odam ko'pchilik bo'lsa, ish samaradorligiga zarar keltirishi mumkin!
2. Muayyan ishlarni bajarish uchun qo'mitaga qo'shimcha a'zolar kerak bo'lishi mumkin.
3. O'quvchilar qo'mitada to'g'ri vakillik qilishlari kerak va eng munosib nomzodlar nima uchun ular qo'mitada ko'ngilli ekanliklarini tushuntirgandan so'ng, eng yaxshisi maktab yig'ilishi paytida tengdoshlari tomonidan tanlanishi kerak.
4. Maktab tadbirlari davomida maktab eko-qo'mitasining tashkil etilganligini nishonlash – bu maktab jamoatchiligining dasturga bo'lgan qiziqishini uyg'otishning yaxshi bir usulidir. Bunday tadbir davomida direktor o'quvchilarning ruhini ko'tarish maqsadida a'zolik guvohnomalarini topshirishi mumkin!



Tavsiyalar:

1. Maktab eko-qo'mitasi yig'ilishlari yiliga kamida to'rt marta tashkil etilishi kerak. Ammo dasturning dastlabki bosqichlarida yig'ilishlar tez-tez bo'lib turishi kuzatilishi mumkin.
2. Yig'ilish bayonlari saqlanib turilishi (xabarnoma bannerida, axborot byulletenida yoki veb-saytda yoki boshqa yo'l bilan) va maktab jamoatchiligining qolgan qismiga (shu jumladan Maktab kengashi / Direktorlar kengashiga) va undan ham yaxshiroq, mahalliy aholiga yetkazilishi kerak.
3. O'quvchilar ommaviy yig'ilishlarni boshqarishning ba'zi jihatlari (masalan, yig'ilishlar bayonini yuritish va muloqot qilish) uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari kerak (yoshi katta qo'mita a'zolari yordamida).

Tabriklaymiz!

Siz 1-qadamingizni bajardingiz! Keyingi qadamda maktabingizni baholashingiz kerak!



Mukofotlash mezonlari



Eko-qo'mita o'quvchilar va kattalardan iborat | Jamoa yiliga kamida 4 marta yig'ilish uyushtiradi | Har bir yig'ilishda bayonlar tuziladi | Qarorlar va harakatlar maktab jamoatchiligiga yetkaziladi



Eko-qo'mita o'quvchilar, xodimlar va jamoatchilik a'zolaridan iborat | Jamoa yiliga kamida 6 marta yig'ilish o'tkazadi | O'quvchilar qaror qabul qilish jarayonida ajralmas hisoblanadi va bayonlarni saqlash uchun javobgardir | O'quvchilar jamoaviy ma'lumotni maktab jamoatchiligiga yetkazish uchun mas'uldir



Eko-qo'mitaning 50% o'quvchilardan iborat bo'lib, ularga o'qituvchilar, xodimlar va jamoatchilik a'zolari kiradi | Jamoa yiliga kamida 8 marta yig'ilish o'tkazadi | O'quvchilar eko-harakatlar jamoasining yig'ilishlarini o'tkazish va jamoaviy qaror qabul qilish jarayonida katta mas'uliyatni o'z zimmalariga oladilar | O'quvchilar har bir yig'ilish bayonini saqlash va ma'lumotni butun maktabga yetkazish uchun javobgarlikni o'zaro bo'lishadilar | Vakil o'quvchilar qolgan o'quvchilarni tadbirlarga faol jalb qilishadi va maktab o'quvchilaridan takliflar yig'ishadi

Qanday qilib yordam berishingiz mumkin?

Guruhingizni tashkil qilishda ko'mak berishi uchun maktab eko-qo'mitasining rejalar jadvalidan foydalaning. Siz o'quvchilarga jamoada ishlash va hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun yig'ilishlarga tashrif buyurishingiz mumkin. Ilhom bering. Ammo esda tutingki, eko-maktablar o'quvchilar tomonidan olib boriladigan jarayondir, iltimos, o'zingizning loyiha g'oyalaringiz va faoliyatlaringizni ularga yuklamaslikka harakat qiling, ularga kerakli loyihani topishda yordam bering.

Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for recording notes.

2-qadam: Barqarorlikning ekologik auditi

Atrof-muhitni o'rganish o'zi nima?

Atrof-muhitni o'rganish — bu ekologik maktablarning o'nta mavzusini va boshqa bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga olgan sizning maktabingizning auditidir. Sizning atrof-muhit bo'yicha bergan bahoingiz maktabingizning hozirgi atrof-muhit ko'rsatkichlarini aniq aks ettirishga qaratilgan. U sizga nimani yaxshi bajarayotganingizni va nima ustida yaxshiroq ishlashingiz kerakligini ko'rsatib beradi.

Atrof-muhitni o'rganishdan maqsad:



Maktab jamoatchiligiga tegishli bo'lgan ekologik muammolarni hal qilish uchun imkoniyat yaratish




Maktab jamoatchiligiga tegishli bo'lgan ekologik muammolarni hal qilish uchun imkoniyat yaratish



Maktab atrof-muhitining holati va maktabning atrof-muhitga ko'rsatayotgan ta'siri haqida maktab jamoatchiligini xabardor qilish



Maktab jamoatchiligiga atrof-muhitni boshqarish bo'yicha nazarda tutilgan ishlarni birinchi o'ringa qo'yishida ko'mak berish



Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar rejasini tuzishda ko'maklashish



Maktabning tadbirlar rejasini ilgari surilishini va bajarilishini nazorat qilish uchun zarur bo'lgan vositalarni taqdim etish

Eslatma: Qo'mitaning birinchi vazifasi maktab atrof-muhitini o'rganish va ekologik ekspertizaga asoslanib, tadbirlar rejasini tuzish va ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish bo'lishi kerak.



Atrof-muhitni o'rganish bo'yicha tekshiruv ro'yxati

Atrof-muhitni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini qamrab olgan atrof-muhitni baholash bo'yicha tekshiruv ro'yxati keyingi sahifalarda keltirilgan. Maktab uni qanday bo'lsa, shunday qabul qilishi yoki maktab ehtiyojlariga qarab moslashtirishi mumkin. Agar kerak deb topsangiz, maktab oldida turgan yangi muammolarni ham qo'shsangiz bo'ladi.



Atrof-muhitni o'rganishni boshlash uchun 4 ta oddiy qadam:



1-qadam

Savol bering!

“Maktabingizdagi atrof-muhitning qaysi jihatlari sizga ma'qul va qaysilari sizga yoqmayapti?”



2-qadam

Ko'proq yordam oling!

Maktab jamoatchiligidan ko'proq ma'lumot to'plash va ko'rib chiqish jarayonida yordam olish uchun kattalardan (ota-onalardan yoki o'qituvchilardan) yordam so'rang.



3-qadam

To'plang va bo'lishing!

Yig'ilgan ma'lumotlardan hisobot tuzilib, maktab jamoatchiligiga tarqatiladi.




4-qadam

Harakat qiling!

Qo'mita hisobotni batafsil muhokama qilish, ustuvor vazifalarni aniqlash va dasturning keyingi bosqichi – dasturlar rejasini tuzish uchun yig'iladi.

Xabarnomaga kiritilgan atrof-muhit tahlili eko-maktab mavzularini aks ettiruvchi bo'limlarga bo'lingan



Eslatma: Sizing maktabingiz ekologik muammolarga mos keladigan boshqa sohalarni tanlashi va tegishli ravishda tekshiruv ro'yxatini qayta ko'rib chiqishi mumkin. Shuning uchun atrof-muhit tahlilining har bir qismida bir nechta bo'sh satrlar mavjud va oxirgi katak bo'sh qoldirilgan.



2-qadam: Barqarorlikning ekologik auditi

Mukofotlash mezonlari



Rasmiy yoki norasmiy audit o'tkazildi | Maktablar o'z mezonlarini ishlab chiqishi yoki eko-maktablar tekshiruv ro'yxatidan foydalanishlari mumkin.




Eko-maktablar auditi yordamida Ikki rasmiy tekshiruv o'tkazildi | Audit natijalari hujjatlashtirilgan | Audit tekshiruvini o'tkazishda o'quvchilar faol rol o'ynaydilar | Natijalar butun maktabga yetkazildi



Eko-maktablar auditi yordamida kamida uchta rasmiy va keng qamrovli audit o'tkazildi | Audit natijalari hujjatlashtirilgan | O'quvchilar audit tekshiruvlarini o'tkazishda faol ishtirok etishdi va jamoatchilik resurslari orqali mutaxassislarni jalb qilishdi | Natijalar butun maktab bilan bir qatorda keng jamoatchilikka ham yetkazildi | Umumiy natijalarni baholash uchun har yili ekologik audit o'tkazib boriladi.

Siz qanday yordam berishingiz mumkin?

Agar siz yoki boshqa yoshi kattalar eko-maktablar yo'nalishlaridan biri haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lsangiz, siz eko-qo'mitaga o'zingizning mutaxassisligingiz bo'yicha chuqur tahlil o'tkazishda yordam berishingiz mumkin. Esingizda bo'lsin, eko-qo'mita ekologik auditni o'tkazadi va yakunlaydi, ammo sizning tajribangiz qo'shimcha tushuncha va dalillarni taklif qilishi mumkin.



Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for writing notes.

3-qadam: Harakatlar rejasini ishlab chiqish

Atrof-muhit tahlilini tugatgandan so'ng, siz o'z harakatlar rejangizni ishlab chiqishni boshlashingiz mumkin!

Harakatlar rejasini qanday ko'rishga ega?

Harakatlar rejasini atrof-muhitni o'rganishdan so'ng belgilangan maqsadlarga erishishga qaratilgan bir qator davriy jadvalardan iborat. Harakatlar rejasida siz muddatlarni belgilashingiz, harakatlar uchun mas'ul shaxslarni tayinlashingiz va (agar iloji bo'lsa) amaldagi o'quv rejasini bilan bog'lashingiz kerak. Harakatlar rejasining namunasini quyida keltirilgan:

Asosiy maqsad: 2024-yil sentabr oyiga qadar maktab hududida chiqindi bo'lmaydi va kamida 50% sinflarda chiqindi qutilari qo'yiladi va ulardan doimiy ravishda foydalaniladi.

Harakat	Maqsad	Mas'ul shaxs	Vaqt	O'quv rejasiga bog'liqligi
Chiqindiga qarshi plakatlar tanlovi	Butun maktab bo'ylab chiqindiga qarshi kurash to'g'risida xabardorlikni oshirish	Kichik sinf o'quvchilari	1 oy	
Ertalabki yig'ilish paytida maktabga "Chiqindiga qarshi" aksiyasini taqdim etish	Xabardorlikni oshirish	Katta sinf o'quvchilari	1 oy	
"Chiqindiga qarshi" aksiyasi haqida ota-onalarga axborot byulleteni	Keng jamoatchilikni xabardor qilish va jalb qilish	Katta sinf o'quvchilari	1 oy	
Maktabdagi chiqindini nazoratga olish	Harakatlarni nazorat qilish	Qo'mita	Har doim	
Eko-maktablarning e'lonlar taxtasida chiqindi grafiklarini ko'rsatish va yangilab turish	Xabardorlik	Qo'mita	Har doim	
Maqsadlarni qayta ko'rib chiqish	Dasturni baholash	Qo'mita	3 oy	
Tadbirlarni takrorlash – harakatlar sonini oshirish		Kichik sinf o'quvchilari va katta sinf o'quvchilari	4 oy	
Maqsadlarni qayta ko'rib chiqish	Dasturni baholash		6 oy	
Muvaffaqiyatni nishonlash	Eko-maktablarda keyinchalik ham ishtirokni rag'batlantirish	Butun maktab	6 oy	

Harakatlar rejasini qanday shakllantirish kerak?

Atrof-muhit tahlilidan to'plangan ma'lumotlardan foydalaning.

Maktab hal qilishi kerak bo'lgan ekologik muammolarni ajratib ko'rsating

Harakatlar rejasini yaxshiroq ishlab chiqish uchun atrof-muhit tahlilida mavzularni ustuvorlikka muvofiq belgilaganingizga ishonch hosil qiling. Bu eko-qo'mitaga dolzarblik darajasiga ko'ra ekologik muammolarni samarali boshqarish imkonini beradi.



Yodda tuting!

Harakatlar rejasini tuzishda siz o'zingizning rivojlanishingizni kuza-tishingiz va o'lchashingiz kerak.

Nimalar qilish kerakligini aniqlash-dan tashqari, nima uchun bu aniq choralarni ko'rayotganingizni va maqsadlarga qanday erishayot-ganingizni bilishingiz foydalidir.

Harakatlar rejasini uchun foydali maslahatlar:

- aniq va erishiladigan maqsadlarni belgilang,
- qisqa, o'rta va uzoq muddatli maqsadlarni bir-biridan farqlay oling;
- maqsadlarni ustuvorlikka asosan belgilab chiqing.



Harakatlar rejasini tuzish

Tavsiya: "Amalga oshirish zarur", "Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar" va "Bunga bog'liq xarajatlar" deb nomlangan bo'limlar ("Atrof-muhit tahlili" ro'yxatiga qarang) harakatlar rejasini tuzishda e'tiborga olinadigan narsalar uchun yaxshi ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qilishi mumkin.



3-qadam: Harakatlar rejasini ishlab chiqish

Mukofotlash mezonlari



Atrof-muhit auditi natijalari bo'yicha eko-maktablardan biri tanlangan yondashuvni o'zingiz uchun belgilab oling | Harakatlar rejasini butun maktab jamoatchiligi bilan bo'lishing | Maktab miqyosida atrof-muhit muammolarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar tanlangan yo'lga asosan belgilanadi



Belgilangan aniq maqsadlarni, shuningdek, bajarish muddatini belgilang | Atrof-muhitni boshqarishning bir nechta jihatlarini qamrab oladigan bir qator tadbirlarni rejalashtiring | Natijalar butun maktab bilan bir qatorda keng jamoatchilikka yetkaziladi



Rasmiy keng qamrovli atrof-muhit auditining natijalari bo'yicha batafsil harakatlar rejasini tuzing | Belgilangan aniq maqsadlarni, shuningdek, bajarish muddatini belgilang | Atrof-muhit auditi natijalari bo'yicha batafsil harakatlar rejasini tuzing | Harakatlar rejasi maqsadlardagi ustuvorlikka ahamiyat beradi | Harakatlar rejasida har bir harakat uchun mablag' tejash to'g'risida ma'lumot bor

Siz qanday yordam berishingiz mumkin?

Katta maqsadni kichikroq, boshqariladigan maqsadlarga ajratish bo'yicha maslahat bering. Ilgari ishlagan harakatlar rejalarining namunalari bilan bo'lishing. O'quvchilarni ularning loyihalari mahalliy, milliy va global darajada ta'sir qilishi mumkin bo'lgan narsalar haqida muntazam ravishda mulohaza qilishlariga chaqing.



Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for writing notes.

4-qadam: Monitoring va baholash

O'z natijalaringizni nima uchun kuzatishingiz va baholashingiz kerak?



O'z harakatlaringizni sinchkovlik bilan kuzatib borishingiz va o'lchashingiz harakatlar rejasida ko'rsatilgan maqsadlarning to'g'ri hal qilinishi va ularga erishilishini ta'minlashga yordam beradi.



Monitoring, tadbirlarning samaradorligi to'g'risida fikr-mulohaza bildirishdan tashqari, eko-maktablar qo'mitasiga qabul qilingan strategiyani tanqidiy baholashga va ishning mumkin bo'lgan muqobil usullarini aniqlashga imkon beradi.

Natijalaringizni qanday qilib monitoring qilishingiz mumkin?



O'quvchilarni monitoring jarayoniga jalb qiling

Bu o'quvchilarga butun loyiha bo'yicha mas'uliyat va egalik tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi.



Yondashuvni nazorat qiling

Yondashuvni nazorat qilish to'planishi kerak bo'lgan ma'lumot turiga ham bog'liq, misol uchun:



Fotosuratlarda loyihaning (masalan, o'yin maydonchalari-ning ishga tushishi) qanday rivojlanib borayotganligi to'g'risida aniq ma'lumot bo'lishi mumkin.



Anketalar va oddiy intervyular odamlarning taassurotlari va munosabati haqida ma'lumot to'plashning eng yaxshi usuli hisoblanadi.



O'z rivojlanishingizni qanday baholash mumkin?

Bu juda muhim!



Barcha kerakli ma'lumotlarni to'plaganingizdan so'ng, eko-maktablar qo'mitasi harakatlar rejasining maqsadlarini ko'rib chiqishi va baholashi va qaror qabul qilishi kerak:

REJA MUVAFFAQIYATLIMI?

Harakatlarning muvaffaqiyatlilikini asosiy maqsadingiz bilan solishtiring, kuzatib boring va baholang;

YONDASHUV MUVAFFAQIYATLIMI? BUNGA MAKTABDAGI BARCHA O'ZGARISHLAR BILAN ERISHISH MUMKINMI?

Ishning yangi usullarini sinab ko'rishda davom eting va taslim bo'lmang! Agar siz qo'lingizdan kelganicha harakat qilgan, bir nechta variantni sinab ko'rgan bo'lsangiz va ular hali ham natija bermayotgan bo'lsa, maqsadingizni haqiqatan ham amalga oshirilishini ta'minlash uchun qayta ko'rib chiqing!

HARAKATLARNING YANGI YO'NALISHI?

Yangi paydo bo'layotgan ehtiyojlarni qondirish uchun qanday yangi choralar ko'rish kerak.

YODDA TUTING!

Eko-maktablar butun maktabning loyihadidir, shuning uchun monitoring va baholash natijalari butun maktab jamoatchiligiga yetkazilishi juda muhimdir.



Aynan shu joyda eko-maktabga oid e'lonlar taxtasi juda foydali! Maktab muhitining holatini aks ettiruvchi jadvallarni namoyish qilish harakatlar rejasining natijalarini yetkazishning samarali usuli bo'lishi mumkin.

Maktab jamoatchiligi o'zlarining sa'y-harakatlari ta'siri haqida ijobiy va doimiy fikr-mulohazalarni olsalar, katta motivatsiyaga ega bo'lishlari mumkin. Maktabingiz sizning maqsadlaringizdan biriga erishganidan so'ng, buni nishonlang!

4-qadam: Monitoring va baholash

Mukofotlash mezonlari



Eko-qo'mita jamoasi Eko-harakatlar rejasini belgilaydi va bajarilishini nazorat qiladi | Muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar rasmiy bayonda qayd etilgan va "Yashil bayroq" mukofotiga ariza topshirishda foydalanish uchun arxivlangan



Eko-qo'mita jamoasi ekologik harakatlar rejasini dastlabki muddatlar va maqsadlarga nisbatan belgilaydi va kuzatib boradi | Maktab ikkita eko-maktab yo'llariga yo'naltirilgan bitta yirik loyihada sezilarli yutuqlarni namoyish etmoqda | Yutuqlar va muammolar butun maktab bilan ulashildi



Eko-qo'mita jamoasi ekologik harakatlar rejasini dastlabki muddatlar va maqsadlarga nisbatan belgilaydi va kuzatib boradi | O'quvchilar nazorat qilish va baholash bilan shug'ullanadilar | Ma'lumotlar ba'zi o'quv dasturlarida ishlatiladi | Maktab eko-maktablarning kamida uchta yondashuvini qamrab oladigan bir qator yirik loyihalarda sezilarli yutuqlarni namoyish etmoqda | Yutuqlar va muammolar butun maktabga va keng jamoatchilikka yetkaziladi

Siz qanday yordam berishingiz mumkin?

O'quvchilarga anketalar, so'rovnomalar va ma'lumotlarni tahlil qilish usullarini ishlab chiqishda yordam bering. Oldin va keyin olingan rasmlarni to'plash uchun kameradan qanday foydalanish haqida tushuncha bering. Auditdan keyingi tekshiruvlardan qanday foydalanish mumkinligini va kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni qanday samarali tahlil qilishni tushuntirib bering. O'quvchilarga nimani o'lchash muhimligi haqida o'ylashga turtki bering.



Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for writing notes.

5-qadam: O'quv dasturiga bog'lash

Eko-maktab faoliyatini o'quv rejasi bilan bog'lash dasturning obro'sini oshirish bilan bir qatorda, eko-maktablarning haqiqatan ham maktab jamoatchiligi bilan birlashishini ta'minlaydi. Umumiy strategiya ekologik ta'lim tushunchalarini allaqachon mavjud bo'lgan mavzularga singdirishni taklif qiladi va yangilarini yaratmaydi.



Muayyan mavzudagi ekologik ta'lim jihatlarining birlashtirilishi tegishli mavzuni bog'itadi va shu bilan uni yanada dolzarb va qiziqarli qiladi. Ushbu integratsiya juda qiyin ish bo'lishi shart emas. Bog'liqlik darajasi o'quv dasturi qanday tuzilganligi va o'qituvchilarning ushbu tashabbus bilan shug'ullanish istagiga bog'liq. O'qituvchilar atrof-muhit ta'limi tamoyillarini tasodifiy o'qitish yoki hatto o'quv dasturining muayyan jihatlarini qamrab olishga qaratilgan rejali o'qitish orqali joriy etishlari mumkin.

Milliy ta'lim rejasi

Boshlang'ich va o'rta maktablar uchun ta'lim tizimida va jarayonlarida ekologik ta'limning kirib borishini osonlashtiradigan bir nechta choralarini taklif qiladigan yo'riqnomalarga rioya qilish kerak (quyida ko'rsatilganidek):

Eko-maktablar dasturining metodologiyasi va asosiy qadriyatlar ta'lim dasturiga mos keladi, va aynan ushbu dastur o'quvchilarning orzularini, fikrlash qobiliyatlarini, yetakchilik mahoratini, shuningdek, axloqi va ma'naviyatini o'z ichiga oladi.

Ta'lim dasturini takomillashtirish Ta'lim vazirligi, maktablarga ehtiyojlar asosida yechim topish imkonini beruvchi qadriyatlarga asoslangan rivojlanish hamda

- ota-onalar
- jamoatchilik
- xususiy sektor (nodavlat notijorat tashkilotlari, xususiy kompaniyalar va boshqalar) bilan sheriklik munosabatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.




Ilm-fan

- Kuzatuvlar o'tkazish va atrof-muhit muammosi to'g'risida ma'lumotlar yig'ish
- Turli xil yashash joylari va ularda yashovchi o'simliklar va hayvonlarning moslashuvlarini o'rganish
- Turli xil materiallarni va ulardan qanday foydalanilishni o'rganish
- Energiyadan foydalanish, yo'qotish va tejashni ko'rib chiqish



Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari

- Tadqiqot natijalarini tashkil qilish va taqdim etish uchun elektron jadval dasturidan foydalanish
- Hisobotlarni nashr qilish uchun nashriyot dasturidan foydalanish
- Ma'lum loyihalar to'g'risida taqdimotlar tayyorlash uchun taqdimot dasturidan foydalanish



Matematika

- So'rovnomalarni loyihalashtirish va o'tkazish
- Natijalarni birlashtirish va ularni grafik ko'rinishida taqdim etish
- Matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish
- Aktivlarni boshqarish



Jismoniy holat va sog'liq / Fuqarolik holati

- Sog'lom oziq-ovqat va sog'lom turmush tarzini tanlash
- Fikr almashishni takomillashtirish uchun muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish
- Bolalarga guruhlarda ishlashga yordam beradigan shaxslararo ko'nikmalarni rivojlantirish



Texnologik ta'lim

- Har xil turdagi chiqindilarning turli xil xususiyatlariga asoslangan holda chiqindilarni ajratish punktini loyihalashtirish va qurish
- Chiqindilar kompaktorini (ixchamlashtiruvchi uskuna) loyihalashtirish va tayyorlash



San'at va dizayn

- Aksiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun plakatlar va varaqalar tayyorlash
- Maktabni bezatish uchun devoriy rasmlar va haykallar ishlab chiqarish
- Mavjud bo'lgan narsalardan, masalan, qayta ishlashga yaroqli narsalardan yoki tabiatda topilgan narsalardan ijodkorlikni rivojlantirish uchun foydalanish
- Maktabning Eko-maktabga aylanishidagi yutuqlari nishonlanadigan badiiy festivallar va ko'rgazmalar tashkil etish



Tillar

- Atrof-muhitga oid muayyan muammolarning turli jihatlarini muhokama qilish
- Ma'ruzalar tayyorlash va majlislar davomida bayonnomalarni yuritish
- Siyosatchilarga, davlat ta'lim idoralariga, maslahatchilarga, jamoat arboblarga, OAV muharrirlariga, ishbilarmonlarga, sanoatchilarga va boshqalarga xat yozish



Din

- Atrof-muhitni butun insoniyat bahramand bo'lish uchun Xudoning in'omi deb bilishni o'rganish
- Bolalar qanday qilib kreativ yetakchilar bo'lishi mumkinligiga yangi nazar
- Shaxsning harakati boshqalarga qanday qilib salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tushunish



Ijtimoiy fanlar

- Maktab va joy xaritalarini o'qish va muhim saytlarni ajratib ko'rsatish uchun kalitlardan foydalanish
- Insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini tushunish
- Yillar davomida ba'zi joylar va turmush tarzi qanday o'zgarganligini bilish uchun fotosuratlar, hujjatlar, audio yozuvlar va boshqa ma'lumot manbalaridan foydalanish



Mavzuni tanlashda ularni yanada qiziqarli qilish haqida ko'proq g'oyalar uchun eko-maktablar veb-saytiga tashrif buyuring va mukofotlangan eko-maktablarning sinab ko'rilgan usullari bilan tanishing!

5-qadam: O'quv dasturiga bog'lash

Mukofotlash mezonlari



O'quvchilar ko'plab sinflar va fanlar miqyosida ekologik muammolarni sinfda, maktab hududida yoki mahalliy jamoatchilikda integratsiyalash imkoniyatiga egalar



O'quvchilar ko'plab fanlar miqyosida ekologik muammolarni sinfda, maktab hududida yoki mahalliy jamoatchilikda integratsiyalash imkoniyatiga egalar | O'quvchilarning tajribalari o'quv dasturiga kiritilgan va so'rovnomalarga asoslangan



O'quvchilar hamma sinflar va fanlar miqyosida ekologik muammolarni sinfda, maktab hududida yoki mahalliy jamoatchilikda integratsiyalash imkoniyatiga egalar | O'quvchilar tajribalari o'quv dasturiga kiritilgan va so'rovnomalarga asoslangan | Maktab xodimlariga malaka oshirish va ilg'or tajribalar, ekologik ta'lim bo'yicha bilim va ko'nikmalar bo'yicha treninglar o'tiladi

Siz qanday yordam berishingiz mumkin?

Hamkasblarga o'zlarining barqarorlik ta'limiga qanday hissa qo'shayotganliklarini va atrof-muhitga oid mavzularni o'zlarining pedagogikalaridan ajratish o'rniga, ularni kiritishning oddiy usullarini ko'rishga yordam bering. Maktabgacha yoshdagi o'quvchining 12 yoshgacha bo'lgan tajribasi butun bolani, ongini, tanani va ruhini tarbiyalashga qaratilganligini va qat'iyatlilik yoshlarning ko'nikmalari, qadriyatleri va bilimlarini rivojlantirishning bir usuli ekanligini ta'kidlang.



Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for writing notes.

6-qadam: Xabardor qilish va jalb etish

Eko-maktablar yettita qadam metodologiyasining maktablar, bolalar uylari va umuman maktab faoliyati to'g'risida ma'lumot tarqatish borasida muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Maqsad eko-maktablar to'g'risida imkon qadar ko'proq odamlarni xabardor qilish va ularni jarayonga faol jalb qilish, shu sababli 21-asr mahalliy kun tartibi tamoyillarini ilgari surishdan iborat.



Kengroq jamoatchilikni jalb qilish nafaqat maktabning tashabbuslarini reklama qiladi, balki bir qator afzalliklarga ham ega.

Ota-onalar, mahalliy korxonalar va mahalliy kengashlar maslahat, ma'lumot, amaliy yordam va hattoki moliya manbai bo'lishi mumkin, bularning barchasi dasturning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.



Eko-maktablar faoliyatini qanday targ'ib qilishimiz kerak?

So'raganingizdan xursandman!

Sizning Eko-qo'mitangiz eko-maktab faoliyatingizni targ'ib qilish bo'yicha amalga oshirishi mumkin bo'lgan ba'zi bir chora-tadbirlari!



Maktab yig'ilishlari

Maktab yig'ilishi — bu barcha o'quvchilar va o'qituvchilarga murojaat qilishning eng yaxshi usullaridan biri — bu tadbirlarni e'lon qilish, saylovga ko'maklashish va taqdimotlar bo'lsin!



To'plangan ma'lumotlarni nashr eting

Eko-maktablarni e'lon taxtasida atrof-muhit tahlili paytida butun maktabning belgilangan maqsadlariga erishish yo'lida erishilayotgan yutuqlar to'g'risida muntazam ravishda xabardor qilib turish uchun.



Maktab bo'ylab tadqiqot o'tkazing

Maktab holati, maktab jamoatchiligining xabardorligi va munosabati, shuningdek, amalga oshirilayotgan ishlarning yaxshilanishi to'g'risida ma'lumot to'plash.



Eko-maktablarning har yili nishonlanadigan tadbirini tashkil qiling

Shu yo'l bilan butun maktab yil davomida erishilgan muvaffaqiyatlarni nishonlashi mumkin.



Muntazam ravishda yig'ilishlardan foydalaning

Erishilgan yutuqlar bilan bo'lishish uchun. Eko-maktablarning faoliyatini boshlash va erishilgan yutuqlarni bo'lishish uchun muntazam ravishda yig'ilishlardan foydalaning. O'zingizning yutuqlaringizni auditoriyangizga yetkazish uchun musiqa yoki taqdimot dasturidan foydalanib, siz ijodiy yondashishingiz mumkin.



Eko-maktablar faoliyatini boshlash

Maktab veb-saytida eko-maktablar faoliyati to'g'risida ma'lumot joylashtiring (agar veb-sayt bo'lmasa, ijtimoiy tarmoqlarda kamida bitta sahifa bo'lishi kerak).



Maktab bo'ylab tanlov o'tkazing

Maktab Eko-kodeksining tuzilishi va dizaynini yaratish bo'yicha, shuningdek atrof-muhit va barqarorlik bilan bog'liq boshqa tadbirlar uchun.

Jamoatchilikni jalb qilish

Ajoyib!

Endi ko'proq odamlarni jalb qiling! Yaqin atrofdagi jamoatchilikdan boshlang! Ammo jamoatchilikni qanday jalb qilish kerak?



Tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashlarini so'rab mahalliy korxonalariga xat yuboring



Jamoatchilikdagi odamlardan maktabda nutq so'zlash yoki muayyan vazifalarda yordam berishlarini so'rab taklif qiling



Eng dolzarb bo'lgan atrof-muhit muammolari to'g'risida ma'lumot to'plash uchun jamoatchilik o'rtasida so'rov o'tkazing



Eko-maktabning rivojlanishi to'g'risida ota-onalarni muntazam ravishda xabardor qilib turadigan axborot byulletenlarini bosib chiqaring. Axborot byulletenlarining nusxalari jamoatchilikning boshqa a'zolariga ham yuborilishi mumkin (masalan, mahalliy kengash, mahalliy korxonalar, tegishli davlat idoralari va nodavlat notijorat tashkilotlariga). Ushbu xabarnomalar elektron pochta, ijtimoiy tarmoqdagi xabarlar yoki telefon orqali xabar yuborish xizmatlari shaklida bo'lishi mumkin!



Eko-maktablar faoliyati, tadqiqot natijalari va yutuqlarini reklama qiluvchi matbuot anjumanlarini o'tkazing



Jamoatchilik orasida maktabning Eko-kodeksini tarqating



Jamoatchilikdan odamlarni taklif qiling
Eko-maktablar tadbirlarida qatnashish sizning eko-maktablar dasturingiz faoliyati to'g'risida jamoatchilikni keng xabardor qilishga xizmat qiladi!

6-qadam: Jamoatchilikni jalb qilish

Mukofotlash mezonlari



Maktab eko-maktablar xodimlari va o'quvchilari bilan hamda keng jamoatchilik bilan muloqot qilish uchun axborot byulleteni, e'lonlar taxtasi yoki veb-sayt kabi taniqli va o'ziga xos usullardan foydalanadi.



Maktab eko-maktablar xodimlari va o'quvchilari bilan hamda keng jamoatchilik bilan muloqot qilish uchun axborot byulleteni, e'lonlar taxtasi yoki veb-sayt kabi taniqli va o'ziga xos usullardan foydalanadi. | Butun maktab jamoatchilik ko'ngillilari bilan bir qatorda eko-maktablarning tadbirlarida qatnashishadi.



Maktab eko-maktablar xodimlari va o'quvchilari bilan hamda keng jamoatchilik bilan muloqot qilish uchun axborot byulleteni, e'lonlar taxtasi yoki veb-sayt kabi taniqli va o'ziga xos usullardan foydalanadi. | Butun maktab jamoatchilik ko'ngillilari bilan bir qatorda eko-maktablarning tadbirlarida qatnashishadi. | Maktab harakatlar kunini yoki boshqa tadbirlarni o'tkazadi, bu keng jamoatchilikni eko-maktablar loyihalarini o'rganishga va ularga yordam berishga jalb qiladi. | O'quvchilar eko-maktablar dasturi haqida mahalliy gazetalar va jurnallar uchun maqolalar yozadilar. | Maktab eko-maktablar veb-saytidan va boshqa aloqa vositalaridan foydalanib, o'z loyihalarini boshqa maktablar va dunyo jamoatchiligi bilan baham ko'rmoqda.

Siz qanday yordam berishingiz mumkin?

O'quvchilarga notiqlik mahoratini hamda professional ommaviy axborot vositalari bilan muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam bering. "Tanqidiy do'st" rolini o'ynab, muzokara ssenariylarini mashq qildiring. Press-revizlarni yozish va ommaviy axborot vositalari bilan aloqa qilish bo'yicha maslahatlar bering. Hodisalar va tadbirlarni o'z kanallaringiz orqali, onlayn, bosma va shaxsan targ'ib qilish orqali yordam bering.

Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for recording notes.

7-qadam: Ekologik kodeksni shakllantirish

Eko-kodeks bu — maktabingizning atrof-muhit ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan vazifa va majburiyat. Odatda u chiroyli va kreativ tarzda sizning maktabingizdagi eng mashhur yoki gavjum joylarda namoyish etiladi!

Eko-kodeks, asosan, harakatlar rejasiga asoslangan maqsadlar ro'yxati bo'lib, maktab jamoatchiligi qabul qilishga rozi bo'lgan asosiy harakatlarni aks ettirishi kerak.



Eko-kodeksning to'g'ri tuzilishi va dizaynini tanlashda o'quvchilarning faol roli muhim! Bu o'quvchilarning Eko-kodeks hujjatiga kiritilgan qadriyatlarni va majburiyatlarni tushunishini ta'minlaydi. Fuqarolik ta'limi darslari o'quvchilarga maktabning atrof-muhitga oid qadriyatlarini saqlashdagi mas'uliyatini o'rganish uchun ideal sharoit yaratadi.

Eko-kodeksni taqdim etish uslubi maktabning o'ziga bog'liq. Bayonot bir qator iboralardan (masalan: qisqartiramiz, qayta ishlaymiz, chiqindini tegishli joyga tashlaymiz, Yerni muhofaza qilamiz!), she'rlardan yoki hatto qo'shiqlardan ham iborat bo'lishi mumkin! Eko-kodeksni yanada jozibali qilish uchun, odatda, ko'zga tashlanadigan rasmlar qo'shiladi.



Eko-kodeks har yili yangilanib turishi kerak, chunki maktab jamoatchiligi oldida hal qilinishi lozim bo'lgan yangi atrof-muhit muammolari paydo bo'ladi. Kelajakdagi muammolarni yengish uchun birgalikda harakat qiling!

**Siz barcha 7 ta qadamni bajardingizmi?
Endi mukofotga tayyormiz! Qaysi mukofotga loyiq ekanligingizni bilish uchun mukofot mezonlarini tekshiring!**



7-qadam: Ekologik kodeksni shakllantirish

Mukofotlash mezonlari



Eko-qo'mita a'zolari butun maktab bo'ylab ma'lumot to'playdilar hamda kelishilishi va qabul qilinishi lozim bo'lgan Eko-kodeksni ishlab chiqadilar.



Butun maktabga Eko-kodeksni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish imkoniyati beriladi.

Eko-qo'mita a'zolari takliflarni qabul qiladi, Eko-kodeksni tuzatadi va tasdiqlashga beradi. | Eko-kodeks uni hamma ko'rishi uchun maktabga kiraverishda, ko'rinarli joyga ilib qo'yiladi. | Eko-kodeks uning dolzarbligini ta'minlash uchun har yili qayta ko'rib chiqiladi.



Siz qanday yordam berishingiz mumkin?

Eko-faollar jamoasi Eko-kodeksni ishlab chiqishga urinayotgan payt — ular o'z shahri, mamlakati, xalqi va butun Yer sayyorasiga ta'sir ko'rsatuvchi atrof-muhit va barqaror rivojlanish muammolari haqida kengroq fikr-mulohaza yuritishlari uchun yaxshi imkoniyatdir. O'quvchilarga tanqidiy va tizimli fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishlariga yordamlashing. Agar artistik qobiliyatingiz bo'lsa, bu o'quvchilarga o'z she'riy, lirik va badiiy ko'nikmalarini rivojlantirishlari uchun ajoyib imkoniyatdir. Bu, shuningdek, maktab jamoatchiligini Eko-kodeksni ishlab chiqish bo'yicha tanlovlarda ishtirok etishga jalb qilish uchun yaxshi imkoniyatdir.



Qaydlar uchun

A series of horizontal dotted lines for writing notes.

Asosiy mavzular



Biologik xilma-xillik: Agar siz maktabingiz atrofida sayr qilish uchun ko'chaga chiqsangiz, tabiat va inson tomonidan yaratilgan jonli va jonsiz narsalarni kuzatasiz. Siz topgan jonsiz va jonli narsalar o'rtasidagi bog'liqlik qanday? O'zingizning kashfiyotlaringiz asosida hayotning xilma-xilligi uchun qulay sharoit yaratish uchun nima qilishingiz mumkin?



Iqlim o'zgarishi: Bizning xatti-harakatlarimiz va maktabimizdagi va uyimizdagi munosabatimiz karbonat angidrid chiqindilariga qanday hissa qo'shadi? Ushbu xatti-harakatlar va munosabatlarning bizning eko-tizimimiz salomatligiga ta'siri qanday?



Iste'mol va chiqindilar: Tabiat materiallarni qanday qayta ishlaydi? Bizning ekologik tizimimiz sog'lig'iga moddiy aylanish jarayonimiz qanday ta'sir qiladi? Tabiat materiallarni yaxshiroq qayta ishlashi uchun qanday o'zgarishlar qilishimiz mumkin?



Energiya: Energiya manbai nima? Tabiat orqali energiya qanday harakatlanadi? Energiyadan foydalanish bo'yicha xatti-harakatlarimiz va munosabatimiz iqtisodiyotga va atrof-muhit salomatligiga qanday ta'sir qiladi?



Sog'lom turmush: Sog'lom harakatlar — bu nima? Jismoniy faollik o'qishga qanday ta'sir qiladi?



Sog'lom maktablar: Xavfli chiqindilar to'g'ri tashlanmaganida nima bo'ladi? Ichki havo sifati maktab tashqarisidagi havo sifatidan nimasi bilan farq qiladi?



Maktab hovlisidagi joylar: Maktabingiz hududining qaysi jihatlari turli xil jonzorlar va o'simliklar tufayli qo'llab-quvvatlanadi? Maktabingiz hududida o'quvchilar o'rganishlari uchun qanday tabiiy hodisalar mavjud?



Barqaror oziq-ovqat: Bizning ovqatimiz qayerdan keladi? Oziq-ovqat yetishtirish, ekologik sog'liq va jismoniy sog'ligimiz o'rtasidagi bog'liqlik qanday?

















Transport: Biz maktabga va uyga borib kelish usullarimizni qanday tendensiyalar va yo'llar tavsiflaydi? Transportning eko-tizimimiz salomatligiga ta'sirini kamaytirish va maktab jamoamiz sog'lig'ini yaxshilash uchun ushbu uslublarni o'zgartirishning biron bir usuli bormi?





Suv: Suv havzamizga qanday omillar ta'sir qiladi? Suv sifati va miqdorini yaxshilash uchun ham, uni tejash uchun ham nima qilishimiz kerak?









Atrof-muhitni o'rganish (Barqarorlikning ekologik auditini o'tkazish) uchun so'rovnomalar

Axlat va chiqindilar

Tadqiqot			
Maktab ichida va atrofida chiqindi bormi?		Ha	Yo'q
Maktab binosi ichida nechta chiqindi qutisi bor?			
Chiqindi qutilari qulay joylarda joylashganmi? (ovqat xonasi, har bir qavatda, har bir sinfda va hk.)		Ha	Yo'q
Maktab hovlisida nechta chiqindi qutisi bor?			
Chiqindi qutilari qulay joylarda joylashganmi? (skameykalar, do'konlar va boshqalar yaqinida)		Ha	Yo'q
Oziq-ovqat chiqindilari uchun alohida chiqindi qutilari bormi?		Ha	Yo'q
Chiqindi qutilarining hajmi mos keladimi? Masalan, chiqindi sig'adimi yoki juda kichik / kattami?		Ha	Yo'q
Maktab hududidan chiqindi qanchalik tez-tez chiqariladi?			
Maktab hududidan chiqindini olib chiqish uchun pul to'lanadimi?		Ha	Yo'q
To'lov bo'shatilgan qutilar soniga bog'liqmi?		Ha	Yo'q
O'rtacha oyiga qancha chiqindi qutisi chiqariladi?			
Maktabda chiqindi qutilari yetarlimi?		Ha	Yo'q
Atrof-muhit va yovvoyi tabiatda chiqindi tashlanishidan kelib chiqadigan muammolarni hamma o'quvchilar biladimi?		Ha	Yo'q
Nima uchun chiqindilar miqdorini kamaytirishga harakat qilayotganingizni maktabdagilarning hammasi biladimi?		Ha	Yo'q







Oziq-ovqat qoldiqlari oddiy chiqindilardan ajratilganmi?		Ha	Yo'q
Chiqindilarni yig'ishning oxirgi kampaniyasi / tadbirida (hashar) yig'ilgan chiqindi qoplari soni			
Vaziyatni baholash	Xulosa va qilinadigan ishlar		
<p>Misol:</p> <p>Maktablardagi chiqindi holatini o'rganib chiqib, quyidagilar aniqlandi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maktab ichida ham, tashqarisida ham chiqindi bor. 2. Maktab hududida chiqindi qutilari yo'q. 3. O'quvchilarning hammasi ham atrof-muhitni muhofaza qilishning ahamiyati va chiqindi tashlanishining oqibatlarini haqida bilishmaydi. 	<p>Misol:</p> <p>Mavjud muammolarni hal qilish uchun harakatlar rejasini ishlab chiqish, shuningdek, mas'ul shaxslarni tayinlash zarur.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Tozalik kunini tashkil qilib, maktab bo'ylab ma'lumot bloklarini ishga tushirish. 2. Chiqindi qutilarini sotib olish (yechimlar: maktab jamg'armasi, xayriya tadbirlarini o'tkazish). 3. Ma'lumotni ochiq darslar, treninglar, taqdimotlar, konferensiyalar va boshqalar orqali tarqatish. 		

Suv va sanitariya














Tadqiqot			
O'quvchilar har doim jo'mraklarni to'liq yopib qo'yadimi?		Ha	Yo'q
Maktabdagi barcha jo'mraklar ishlaydimi? (suv tashilishiga yo'l qo'yilmaydimi?)		Ha	Yo'q
Maktab hududida suv oqib ketishi kuzatiladimi?		Ha	Yo'q
Sizda o'simliklarni sug'orish uchun yomg'ir suvini yig'adigan bochka bormi?		Ha	Yo'q
Sinflarda kulerlar bormi?		Ha	Yo'q
Qancha suv ishlatilganini / tejalganligini kimdir tekshiradimi?		Ha	Yo'q
Rakovinalar yaqinida yuvish vositalari bormi?		Ha	Yo'q
Boshqa mamlakatlardagi suv muammolari haqida bilasizmi?		Ha	Yo'q

Hamma suvni asrab-avaylash sayyoramizga g'amxo'rlik qilishda yordam bera olishini tushunadimi? (ichimlik suvini xavfsiz qilishda ishlatiladigan energiya haqida o'ylab ko'ring)		Ha	Yo'q
Suv hisoblagichlari o'rnatilganmi?		Ha	Yo'q
Oylik suv iste'moli darajasi?			
O'tgan yili ishlatilgan suv miqdori?			
Vaziyatni baholash	Xulosa va qilinadigan ishlar		

Elektr energiyasi

Tadqiqot			
Derazalarda pardalar yoki jalyuzilar bormi?		Ha	Yo'q
Agar shunday bo'lsa, ular bulutli kunlarda yopiladimi?		Ha	Yo'q
Maktabda issiq suv boyleri bormi, u ishlatilmaganda o'chadimi?		Ha	Yo'q
Bo'sh xonalarda chiroq doim o'chiq turadimi?		Ha	Yo'q
Chiroq faqat kerakli joyda yonadimi?		Ha	Yo'q
Kompyuterlar va monitorlar ishlatilmaganda o'chiriladimi?		Ha	Yo'q

Sog'lom turmush tarzi

Tadqiqot				
Maktabingizda oshxona bormi?		Ha	Yo'q	
Oshxonada plakatlar, sog'lom ovqatlanish yoki ovqatlarning foydasi haqida infografikalar bormi?		Ha	Yo'q	
Maktab oshxonasi bo'lmasa, o'quvchilar qayerda va nima yeydi?				
Maktab maydonida meva yoki sabzavot yetishtiriladimi?		Ha	Yo'q	
Siz maktab bog'ida yetishtirilgan meva yoki sabzavotlardan foydalanasizmi?		Ha	Yo'q	
Maktab hududida yoki yaqinida do'kon yoki savdo rastasi bormi?		Ha	Yo'q	
Maktab maydonida sport maydonchalari bormi?		Ha	Yo'q	
Maktabda to'g'ri ovqatlanish haqida ma'lumot burchagi bormi?		Ha	Yo'q	
Maktabda sog'lom turmush tarzi bo'yicha darslar o'tiladimi?		Ha	Yo'q	
Jismoniy tarbiya darslari necha marta o'tkaziladi?				
Maktabingizda sog'lom turmush tarzi mashg'ulotlari (musobaqalar va h.k.) o'tkaziladimi?		Ha	Yo'q	
O'quvchilar tanaffus paytida mevalar iste'mol qilishi rag'batlantiriladimi?		Ha	Yo'q	
O'quvchilarda oshxonaning tushlik menyusiga nimani qo'shishni xohlashlarini bildirish imkoniyati bormi?		Ha	Yo'q	
Vaziyatni baholash	Xulosa va qilinadigan ishlar			

Bioxilma-xillik va tabiat

Tadqiqot				
Maktab hovlisida daraxtlar bormi?		Ha	Yo'q	
Agar bo'lsa, mahalliy daraxtlar, o'simliklar xilma-xilligi mavjudmi?		Ha	Yo'q	
Yangi ekilgan daraxtlar parvarish qilinadimi?		Ha	Yo'q	
Biologik xilma-xillik qanday qilib ta'lim maqsadida ishlatiladi?		Ha	Yo'q	
Maktabda hovuz yoki botqoq er bormi?				
Sizning hovuzingizda qurbaqalar, triton va tipratikan uchun chiqish joyi bormi?		Ha	Yo'q	
Maktabingizdagi daraxtlar ustida qushlar uchun ovqatlanish joylari bormi?		Ha	Yo'q	
Maktabingizda o'quvchilar bo'sh vaqtlarini o'tkazib, muloqot qilishlari mumkin bo'lgan soyali joylar bormi?		Ha	Yo'q	
Maktabingizda o'tloq bormi?		Ha	Yo'q	
Sizning o'tlog'ingizda gullar va o'tlar ko'pmi?		Ha	Yo'q	
Sizning maktabingizda joylarni bir-biriga bog'laydigan uzun / teginilmagan o'simlikli maydonlar bormi?		Ha	Yo'q	
Maktabingiz hududida bioxilma-xillikni tadqiq qilganmisiz?		Ha	Yo'q	
So'nggi tadqiqot davomida topilgan o'simlik va hayvon turlarining soni				
Vaziyatni baholash		Xulosa va qilinadigan ishlar		

Barqarorlikning ekologik auditi natijalari bo'yicha hisobot

O'tkazilgan sana va joyi

Qatnashganlar

1. O'quvchilar:

2. O'qituvchilar:

3. Maktab ma'muriyati:

4. Boshqalar:

O'rganilgan mavzular

1. Axlat va chiqindilar

2. Suv va sanitariya

3. Elektr energiyasi

4. Sog'lom turmush tarzi (to'g'ri ovqatlanish)

5. Biologik xilma-xillik

Guruhlar bo'yicha mavzular taqsimlanishi

1. Axlal va chiqindilar

2. Suv va sanitariya

3. Elektr energiyasi

4. Sog'lom turmush tarzi (to'g'ri ovqatlanish)

5. Biologik xilma-xillik

Audit natijalari (mavzular bo'yicha aniqlangan muammolar)

1. Axlal va chiqindilar

2. Suv va sanitariya

3. Elektr energiyasi

4. Sog'lom turmush tarzi (to'g'ri ovqatlanish)

5. Biologik xilma-xillik

Eko-qo'mita yig'ilishining bayoni №__

Eko-qo'mitaning yig'ilishi – bu siz eko-maktablarda o'z faoliyatingizni rejalashtiradigan joy.

	Sizning qaydlaringiz
QACHON Uchrashuv sanasi va vaqti	
QAYERDA Uchrashuv o'tkazilgan joy	
ISHTIROKCHILAR Uchrashuv ishtirokchilarining ismlari	
QATNASHMAGANLAR Uchrashuvga kelmaganlarning ismlari	
AVVALGI HARAKATLAR Bu uchrashuvga amalga oshirilgan xar qanday harakatlar (masalan, oldingi uchrashuvlar natijasida)	
KUN TARTIBI Siz uchrashuvda muhokama qilishni istagan masalalar ro'yxati	

	IJROCHI	HARAKAT	QAYSI MUDDATGA
HARAKATLAR			
KEYINGI UCHRASHUV	Siz ketishdan oldin o'zingizning keyingi uchrashuvingizni qachon va qayerda o'tkazishni mo'ljallaganingizni kelishib oling		